

**QUROLLI KUCHLAR JANGOVOR TAYYORGARLIGINI TA'MINLASHDA
BILIM-KO'NIKMALARNING AHAMIYATI**

Murodov Akmal Djaylibayevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti harbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10615904>

Abstract: This article provides information on the importance of knowledge and skills in ensuring the combat readiness of the armed forces of our Republic.

Key words: Constitution, preparation, ability to manage psychologically, formation of immunity to cope with modern conflicts, constitutional duty.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamiz qurolli kuchlar jangovor tayyorgarligini ta'minlashda bilim-ko'nikmalarning ahamiyati borasida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, tayyorgarlik, psixologik jihatdan boshqara olish, zamonaviy to'qnashuvlarga dosh berish immunitetini shakllantirish, konstitutsiyaviy burch.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq mamlakatni mudofaa qilish davlatning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarning vazifasidir. O'zbekiston Respublikasini tashqaridan bo'ladigan qurolli tajovuzdan himoya qilish O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitutsiyaviy burchidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 125-moddasida "O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi" - deb alohida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, "Mudofaa to'g'risida"gi, "umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi hamda "muqobil xizmat to'g'risida"gi qonunlarda mudofaaviy faoliyatning maqsadi, tartibi, turlari ko'rsatib o'tilgan. Islohotlar, undagi maqsad va vazifalarni to'liq amalga oshirilishi ta'lim tizimini har tomonlama taraqqiy etib borishini, davlatimizning bosh maqsadi va xalqimizning azaliy orzusi bo'lgan jahon talablariga javob bera oluvchi har taraflama etuk shaxsni voyaga etkazishni taqozo etadi. Buning uchun albatta ruhan va jismonan barkamol bo'lishlari, har qanday qiyinchiliklarni engib o'tishga tayyor turishlari darkor. Bugungi dunyo qiyofasi va kuchlar nisbatining kundan-kunga o'zgarib borishi, har bir davlat xavfsizlik tizimini zamona talabiga mos holda doimiy ravishda takomillashtirib borishi davr talabining asosiy faktorlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan Qurolli Kuchlarimiz tarkibida shakllangan professional armiya harbiy kadrlarida qat'iyatlilik, psixologik tayyorgarlik, ruhiy barqarorlik, jasorat, Vatanga cheksiz muhabbat, do'stlik va jangovar hamjihatlik, kasbiy mahoratni chuqur egallashda mustahkam iroda, har qanday tajovuzga munosib

zarba berishga qodir jangchilarini tayyorlashda yuqorida qayd etib o'tilgan omilga muvofiq tashkil etish zarur.

Hozirgi murakkab sharoitda demokratik tamoyil va inson haq - huquqlar tushunchalarini niqob qilib, o'z agressiv maqsadlarini boshqa mamlakat va davlatlar hududida amalga oshirishga bo'lgan intilishning ortbi borayotganligidan kelib chiqib, biz bugungi kunda Vatanimiz hududiy daxlsizligini, harbiy vatanparvarlik sifatlarini, xalqimizning osoyishta hayotini himoya qilishga har jihatdan qodir bo'lgan yoshlarmizni tayyorlashda maktabgacha va maktab ta'lim tizimida maxsus dasturlar asosida tashkil etishimiz va hayotga realizasiya etishimiz dolzARB masaladir. Bir so'z bilan aytganda harbiy vatanparvarlik, sog'lom psixologik dunyo qarash, yurtga sadoqat bilan xizmat qilish har bir yigit – qizda mustahkam iroda, yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalash, ularning aqliy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, amaliy kasb ko'nikmalarini takomillashtirish lozim. Eng muhimi, jamiyatimizning har bir yosh yigit - qizlar millat va xalqi uchun katta umid chirog'i, Vatan himoyachsi va suyanchig'i ekanligini, unga davlat va jamiyat tomonidan faqat so'zda emas, balki amalda ham g'amxo'rlik ko'rsatilayotganligini his qilib yashashi lozim.

Ushbu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurollii kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoev o'z nutqida"...mamlakatimiz mudofaa tizimining tashkiliy tuzilmasi, uning harbiy-jangovar holati, askar va ofitserlarning ma'naviy va ruhiy tayyorgarlik darajasi bugungi tez o'zgarayotgan davr talablaridan ortda qolayotganini qayd etish lozim. O'tgan qisqa davrda milliy armiyamizni isloh qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar qabul qilinib, Qurolli Kuchlarimiz qiyofasini tubdan o'zgartirish jarayoni boshlandi.

Ayni paytda mudofaa sohdsida oldimizda yangi va muhim vazifalar turganini barchamiz yaxshi tushunamiz. Davlatimizning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, armiyamizning jangovar qudrati va salohiyatini oshirish ham eng muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi"^[1] - deb ta'kidlagandi. Harbiy xizmatchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish, keljak avlodni tarbiyalashdagi o'ta muhim, mashaqqatli va sharafli vazifani har tomonlama munosib shaxslar qo'liga topshirish kunning dolzARB masalalaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda harbiy xizmatchilar va ularni tarbiyalaydigan kursantlarni tanlab olishda zamon talablariga to'la javob bera oladigan, ilmiy asoslangan psixologik omillarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

2018-yil 10-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoev - "Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir" nomli ma'rzasida -"men yil davomida Qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini tahlil kilib bordim. Harbiy o'quv mashqlarini Kattaqo'rg'on poligonida kuzatdim, Janubi - G'arbiy, Sharqiy va Toshkent harbiy okruglarida Mudofaa vazirligi va chegara qo'shinlari bo'linmalarini, bugun esa Chirchiq shahridagi harbiy qismni borib ko'rdim. Harbiy xizmatchilar bilan suhbatlashdim, mansabdor shaxslarning hisobotlarini eshitdim. Natijada ko'p yillar davomida yig'ilib qolgan jiddiy, tizimli muammolar aniqlandi. Bular - kadrlar masalasi, qo'shnarlarni zamonaviy qurol-yarog'lar bilan ta'minlash, harbiy

xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, yoshlar va harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalashga taalluqli muammolardir" [1] - deb ta'kidlaydi. Mamlakatimiz mudofaasini, aholining tinch-osuda hayot kechirishi uchun barcha imkoniyatlarni ta'minlash va shu asnoda eng muhimi, suverenitetimiz, hududimiz mustahkamligini ta'minlash dolzarb harbiy strategik masalarlardan hisoblanadi. Jamiyatdagi integrasiyalashuv jarayonining faollashuvi harbiy salohiyat nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, uning asosida aniq bir siyosatning g'oyalari ifodalanganini anglash qiyin emas. Bu holat o'z navbatida Vatan himoyachisi deb nomlangan – harbiylikni kasb sifatida tanlanganlarni yetuk mutaxassis sifatida tayyorlashni taqozo etadi. "Ta'lismi va jamiyat", "ta'lismi va davlat", "Davlat va shaxs", "ta'lismi va harbiy xizmatchi", "ta'lismi va Qurolli kuchlar" kabi kategoriyalarning bir-biriga o'zaro ta'siri va uyg'unlashuvi, mamlakat fuqarolarining yangi avlodini shakllantirishda ularning mavjud bo'lishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da aniq belgilangan. Harbiy ta'lismi tizimi jamiyatdan tashqarida mavjud emas va mavjud bo'lishi mumkin emas, u umumiyligi ta'lismi ajralmas bo'lagi bo'lib, o'ziga xos "jamiyat ko'zgusi", uning davomi va ajralmas qismi hisoblanadi. Shunday ekan, harbiy xizmatchilarning kasbiy malakasini oshirishga, harbiy bilim yurtlardagi o'quv-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilashga, ularni zamon talabidan kelib chiqib ilg'or texnika va jihozlar, zamonaviy o'quv – uslubiy metodolgik qo'llanmalar va ta'lismi texnologiyalari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratib, kursantlarning, g'oyaviy, harbiy psixologik va intellektual tayyorgarlik darajasiga alohida ahamiyat qaratish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2018-yil 10-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoev - "Qurolli Kuchlarimiz –mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir" nomli ma'ruzasi
2. Мирзиёев М.М.–“Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. - Т: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. 143-144 б.
3. Самаров Р., Мухамедов О. Ҳарбий таълим ва тарбияни барқарорликни таъминлашдаги роли Педагогик таълим журнали, 1 –сон, 2007. –Б. 79-81